



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	94
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА	100
Маърупова Дилсора Абдулла кизи	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ	113
Усманова Зумрад Исламовна	
Рахматуллаев Алижон	
Сайфитдинов Азизжон	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA).....	119
Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ	127
Джусупов Кубанычбек	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	133
Umidjon Kostayev	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS	140
Saidova Dilfuza Ergashovna	
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	145
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION.....	152
Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi	
THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN.....	157
Yorkin Ziyodullaev	
Munisa Bekmirzaeva	
РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНА.....	166
Мохамед Эйд Али Балбаа	
Усманова Азиза Алишеровна	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI.....	173
Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna	
BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	180
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich	



THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN	184
Yorkin Ziyodullaev	
Munisa Bekmirzaeva	
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS	193
Bahodirova Durdona	
Atametova Sevara	
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN.....	198
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna	
Jasmin Raxmidinova	
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI	204
Bauyetdinov M.J.	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	212
Safarov Otabek Abduhamidovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI.....	218
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	223
Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI	230
Xatamova Manzura Ochildiyevna	
TURISTIK MAHSULOT MARKETINGI: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	240
Usmanova Zumrad Islamovna	
IN VITRO TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KARTOSHKA URUG'CHILIGI ZANJIRI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	244
Mardonova Zarifa Numonjonovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI	251
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ESG MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA MEXANIZMLARI	258
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARI ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI	262
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
ANIQ FANLARNI O'QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLAR: TEORETIK ASOSLAR, KOGNITIV ARHITEKTURA VA AMALIY TRANSFER MUAMMOLARI	265
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
XUFYONA IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI	270
Kalandarov R.A.	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARIDA ALOQA OPERATORLARI ROLINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	276
Nuraliyev Nurbek Rustam o'g'li	
DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	281
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	



INTERNATIONAL TRENDS AND THE LEGAL FRAMEWORK OF E-COMMERCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	286
Usmanova Zumrad Islamovna	
ISSUES OF ACCOUNTING RECOGNITION AND VALUATION OF LONG-TERM ASSETS UNDER INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS).....	290
Golib D. Tashmanov	
Ismandiyor B. Umirzokov	
СПЕЦИФИКА ФОРМИРОВАНИЯ РИСКОВ В СФЕРЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПЛАТФОРМ	297
Алиева Сусанна Сейрановна	
ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA ANIQ FANLARNI O'QITISHNING KOGNITIV VA METAKOGNITIV DETERMINANTLARI.....	304
Shogeldieva Sabrina Omongeldiyevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	309
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
OTMLARDA ILMIY-TEXNIK MAHSULOTLARNI TIJORATLASHTIRISHDA ISHTIROK ETADIGAN SUBYEKTLAR: ROLLAR, FUNKSIYALAR VA O'ZARO MUNOSABATLAR TAHLILI	313
Safarov Bekzod Istamovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI YASHIL MARKETING VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEKANIZMI	319
Jo'raboyev Jurabek Muhibillo o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	323
Aktamov Olimjon Abdug'ani o'g'li	
SAVDO FAOLIYATIDA MIJOZ EHTIYOJLARINI ANIQLASH MEKANIZMLARI.....	333
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI	338
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СТРАНАХ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА	345
Омокеев Максымбек Конколойевич	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	351
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TOG' TURIZMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	358
Alimov Abdvakil Komil o'g'li	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI.....	365
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI, TASHKILY-IQTISODIY JIHLTLARI.....	371
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TIBBIY TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI	376
Yusupova Mehribon O'ktamovna	
SANOAT TARMOQLARIDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	381
Choriyev Tolib A'zamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING O'ZBEKISTON EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR VA CBAM BILAN BOG'LIQ CHAQIRIQLAR	388
Djurayeva Rano Abdullayevna	
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	395
Avlayeva Oybarchin Olim qizi	
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING BARQAROR O‘SISHINI TA‘MINLASH MASALALARI.....	400
Xasan Axmedov	
УЛУЧШЕНИЕ ОПЕРАЦИЙ С ЦЕННЫМИ БУМАГАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	405
Ниёзов Зухур	
Набиев Достонбек	
RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	410
Davlatova Zamira Rajabboyevna	
DIGITAL TRANSFORMATION OF THE UZBEK LANGUAGE: NEOLOGISMS, CODE SWITCHING AND THE PROBLEM OF LANGUAGE RESOURCES IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS.....	415
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
KICHIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLIL USLUBLARINI MILLIY STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	420
Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Nurmetov Suhrobbek Bahrombek o‘g‘li	
INTERNAL AND EXTERNAL FACTORS IN THE FORMATION OF UZBEK TERMINOLOGY: HISTORICAL STAGES AND CURRENT STATE.....	424
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
PRAGMATIC AND DERIVATIONAL CHANGES OF THE UZBEK LANGUAGE IN YOUTH SPEECH (BASED ON SOCIAL MEDIA AND MEDIA TEXTS)	429
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
THE VOLUME OF AGRICULTURAL PRODUCTION IN THE REGION AND THE ROLE OF REGIONAL SPECIALIZATION IN ENSURING FOOD SECURITY.....	434
Nurali Xolmatovich Bekmurodov	
TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH: VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....	439
Xalimov Shaxboz Xalimovich	



TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH: VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI



Xalimov Shaxboz Xalimovich
i.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
E-mail: xalimovshaxboz8545@gmail.com
Tel.: +998 99 778 98 88

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning, xususan, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining o'rnini hamda ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida VR va AR texnologiyalarining turizm sohasida qo'llanilish yo'nalishlari, ularning sayyohlar xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayoni, xizmatlar sifati va turistik korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari mazkur texnologiyalar turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, mijozlar tajribasini boyitish hamda soha samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari, raqamli texnologiyalar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, innovatsion turizm, xizmatlar samaradorligi, raqamli transformatsiya, turistik tajriba, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы роль и значение цифровых технологий, в частности технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR), в повышении эффективности туристических услуг. В ходе исследования изучены направления применения технологий VR и AR в сфере туризма, их влияние на поведение туристов, процесс принятия решений, качество услуг и конкурентоспособность туристических предприятий. Результаты исследования показывают, что данные технологии являются важным фактором диверсификации туристических услуг, обогащения клиентского опыта и повышения эффективности туристической отрасли.

Ключевые слова: туристические услуги, цифровые технологии, виртуальная реальность, дополненная реальность, инновационный туризм, эффективность услуг, цифровая трансформация, туристический опыт, конкурентоспособность.

Abstract. This article scientifically analyzes the role and significance of digital technologies, particularly Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR), in improving the efficiency of tourism services. The study examines the application areas of VR and AR technologies in the tourism sector and evaluates their impact on tourist behavior, decision-making processes, service quality, and the competitiveness of tourism enterprises. The findings indicate that these technologies serve as important tools for diversifying tourism services, enriching customer experiences, and enhancing the overall efficiency of the tourism industry.

Keywords: tourism services, digital technologies, virtual reality, augmented reality, innovative tourism, service efficiency, digital transformation, tourist experience, competitiveness.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi global iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan innovatsion yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm xizmatlarini samarali tashkil etish, sayyohlarning



ehtiyotlari va xulq-atvorini chuqur o'rganish, shuningdek, xizmatlar sifatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari turizm mahsulotlarini taqdim etish, targ'ib qilish hamda iste'molchi tajribasini boyitishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

So'nggi yillarda VR va AR texnologiyalari nafaqat axborot taqdim etish vositasi, balki sayyohlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida ham e'tirof etilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida turistik manzillarni sayohatga chiqishdan oldin virtual tarzda ko'rib chiqish, real sayohat davomida esa interaktiv va boyitilgan axborotdan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Natijada turizm xizmatlarining jozibadorligi ortib, sayyohlarning qoniqish darajasi hamda tashrif buyurish ehtimoli oshmoqda. Shu sababli VR va AR texnologiyalarining turizm sohasidagi samaradorligini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, 2022-yildan keyingi davrda ko'plab mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni xizmat ko'rsatish tarmoqlariga, jumladan, turizm sohasiga keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida turizmni rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish hamda "aqlli turizm" konsepsiyalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qator strategiyalar va dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa VR va AR texnologiyalarini turizm sohasida qo'llash masalasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining turizm xizmatlari samaradorligiga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilinadi, xalqaro va milliy tajribalar umumlashtiriladi hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu maqola turizm iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar va innovatsion rivojlanish yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni boyitishga munosib hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining o'rni bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda VR va AR texnologiyalarining turistik tajriba, marketing faoliyati hamda boshqaruv samaradorligiga ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar O'zbekistonda turizm sohasining raqamli transformatsiyasi bo'yicha mavjud yondashuvlarni baholash va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, I.P. Tussyadiyah va hamkorlarining "Virtual Reality, Presence, and Attitude Change: Empirical Evidence from Tourism" nomli maqolasida VR muhitidagi "presence", ya'ni foydalanuvchining o'zini virtual makonda real mavjuddek his etishi sayyohlarning turistik manzilga bo'lgan munosabati va tashrif buyurish niyatini sezilarli darajada kuchaytirishi empirik tadqiqotlar asosida isbotlangan. Mualliflar VR texnologiyasini "try-before-you-buy" marketing vositasi sifatida baholab, uning turizm xizmatlari konversiyasini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berganlar [1].

D.A. Guttentagning "Virtual Reality: Applications and Implications for Tourism" maqolasida VR texnologiyalarining turizm sohasidagi qo'llanilish yo'nalishlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Xususan, texnologiyaning rejalashtirish va boshqaruv, marketing, ko'ngilochar xizmatlar, ta'lim, inklyuziv turizm hamda madaniy merosni asrashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Muallif VRni nafaqat reklama vositasi, balki turistik obyektlarga tushadigan yuklamani muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion yechim sifatida ham baholaydi. Mazkur yondashuv turizmning barqaror rivojlanishi va xizmatlar samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega [2].

T.H. Jung va M.C. tom Dieckning "Value of Augmented Reality at Cultural Heritage Sites: A Stakeholder Approach" nomli maqolasida AR texnologiyalarining madaniy meros obyektlarida qo'llanilishi manfaatdor tomonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mualliflar iqtisodiy, tajribaviy, ijtimoiy, epistemik va ta'limiy qiymat kabi omillarni ajratib ko'rsatgan holda, AR texnologiyalarini joriy etish jarayonida kompleks baholash muhimligini asoslaydilar. Ushbu tadqiqot AR texnologiyalarini turizm xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholash imkonini beradi hamda ularning iqtisodiy samaradorligini yanada chuqurroq tadqiq etish istiqbollarni ko'rsatadi [3].

D. Buhalis va R. Lawning "Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years after the Internet – The State of eTourism Research" maqolasida turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari texnologiyalar turizm biznesi, marketing faoliyati va boshqaruv tizimlarini tubdan takomillashtirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Mazkur ish VR va AR kabi immersiv texnologiyalarni turizmning umumiy raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq holda o'rganish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi [4].



S.X. Komolovning “Iqtisodiyotning Turizm Sohasida Raqamli Texnologiyalarni Qo'llash Samaradorligini Oshirish Yo'llari” nomli ilmiy ishida turizm xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmat sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning turizm rivojiga ta'sirini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur tadqiqot VR va AR texnologiyalarini turizmning yagona raqamli ekotizimi tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi [5].

S. To'ychiyevning “Turizmni Rivojlantirishda Eng Zamonaviy Texnologiyalarning Afzalliklari” nomli maqolasida onlayn bron qilish tizimlari, sun'iy intellekt, geolokatsion xizmatlar (LBS), shuningdek, VR va AR texnologiyalarining turistik tajribani boyitish hamda sayyohlarning qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning amaliy ahamiyatini yoritib berishi bilan ahamiyatlidir hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos yaratadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqot aralash metodologiya asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy qismida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining turizm xizmatlari samaradorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida xalqaro hamda milliy ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil usuli asosida o'rganildi. Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish uchun rivojlangan mamlakatlarda VR va AR texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan amaliy loyihalar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning turistik tashriflar soni, bronlash hajmi va iste'molchilar faolligiga ta'siri statistik ma'lumotlar hamda foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida VR va AR texnologiyalarining turizm xizmatlari samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari baholandi va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari turizm sohasining innovatsion rivojlanishida muhim o'rin egallab, xizmatlar ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida iste'molchilarning ushbu texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi hamda talabi tobora ortib bormoqda. Turizm sohasida VR va AR texnologiyalarining ahamiyatini chuqurroq anglash uchun, avvalo, ularning mohiyati va funksional xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [7].

Virtual reallik (Virtual Reality – VR) foydalanuvchini to'liq sun'iy yaratilgan raqamli muhitga olib kiruvchi texnologiya hisoblanadi. VR texnologiyasi maxsus qurilmalar, jumladan, VR ko'zoynaklari, shlemlar va qo'l boshqaruvchilari orqali ishlaydi. Ushbu texnologiya yordamida foydalanuvchi real muhitdan vaqtinchalik ajralgan holda virtual makonda harakatlanish va obyektlar bilan o'zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kengaytirilgan reallik (Augmented Reality – AR) esa real muhitga raqamli elementlarni, jumladan, matnlar, tasvirlar, uch o'lchamli (3D) modellar va animatsiyalarni qo'shib aks ettiruvchi texnologiyadir. AR texnologiyasi asosan smartfonlar, planshetlar va maxsus AR ko'zoynaklari orqali qo'llaniladi. Bunda foydalanuvchi real muhitni kuzatishda davom etgan holda qo'shimcha raqamli axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

VR va AR texnologiyalari o'zining funksional imkoniyatlari hamda qo'llanilish xususiyatlariga ko'ra birbiridan farqlansa-da, ularning umumiy maqsadi foydalanuvchi tajribasini boyitish va axborotni samarali yetkazib berishdan iboratdir. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar turizm xizmatlariga ta'siri, qo'llanish sohasi va foydalanish usullari jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining asosiy farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining qiyosiy tavsifi

Mezonlar	Virtual reallik (VR)	Kengaytirilgan reallik (AR)
Muhit	To'liq sun'iy (virtual) muhit	Real muhit va raqamli obyektlar uyg'unligi
Real dunyo bilan aloqa	Real muhit to'liq yoki qisman cheklanadi	Real muhit saqlanib qoladi
Qo'llaniladigan qurilmalar	VR ko'zoynaklari, shlemlar va qo'l boshqaruvchilari	Smartfonlar, planshetlar va AR ko'zoynaklari
Asosiy maqsad	To'liq immersiv tajribani yaratish	Mavjud axborotni boyitish va vizuallashtirish
Turizm sohasidagi roli	Sayohat oldidan turistik manzillar bilan tanishtirish	Sayohat davomida yo'naltirish va qo'shimcha axborot taqdim etish



Virtual reallik (VR) texnologiyalari turizm sohasida, eng avvalo, sayyohlarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. VR vositalari yordamida potensial sayyohlar safarga chiqishdan oldin turistik manzillar, mehmonxonalar, tarixiy obidalar va dam olish maskanlarini virtual tarzda ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularda "oldindan tajriba" shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayon sayohat bilan bog'liq noaniqliklarni kamaytiradi, ishonch darajasini oshiradi hamda sayohatga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi. Natijada, bron qilish qarorlari tezroq qabul qilinadi, iste'molchilarning emotsional qiziqishi ortadi va turistik xizmatlarga bo'lgan talab kengayadi. Shuningdek, VR texnologiyalari insonlarning tasavvur doirasini kengaytirib, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham virtual sayohat tajribasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi [8].

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari esa turizm jarayonida sayyohlarning real tajribasini boyitish orqali muhim ahamiyat kasb etadi. AR vositalari yordamida sayyohlar tarixiy obidalar, muzeylar va shahar infratuzilmasi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axborotni qabul qilish jarayonini yengillashtirib, sayohat mazmunini yanada boyitadi va qiziqarli qiladi. AR texnologiyalari insonlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasini kuchaytiradi, diqqatni jamlash va axborotni xotirada saqlash samaradorligini oshiradi. Natijada, sayyohlarning umumiy qoniqish darajasi ortadi, xizmatlar sifati takomillashadi hamda turistik hududlar haqidagi ijobiy taassurotlar mustahkamlanadi [9].

Quyidagi jadval VR va AR texnologiyalarining samaradorligi bo'yicha ilmiy manbalarda keltirilgan statistik natijalarga asoslangan. Ko'pgina mamlakatlarda mazkur texnologiyalarning ta'sirini umumiy turistik oqimdan alohida ajratib baholash murakkab bo'lgani sababli, jadvalda ilmiy manbalarda bevosita o'lchangan va foizlarda ifodalangan ko'rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval
VR va AR texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tajriba [7; 8; 9]

Davlat	Texnologiya va turizmga qo'llanilishi	Joriy etilgan yil	Turizmga ta'siri (%)
Kanada	VR – Destination BC loyihasi doirasidagi "The Wild Within" (Great Bear Rainforest virtual tajribasi)	2014-yil	+5 %
Buyuk Britaniya	VR – Thomas Cook kompaniyasining "Try Before You Fly" loyihasi (sayohatdan oldin VR orqali tanishtirish)	2015-yil	+190 %
Germaniya	VR – Thomas Cook kompaniyasining "Try Before You Fly" loyihasi (sayohatdan oldin VR orqali tanishtirish)	2015-yil	+190 %
Belgiya	VR – Thomas Cook kompaniyasining "Try Before You Fly" loyihasi (sayohatdan oldin VR orqali tanishtirish)	2015-yil	+190 %
Xitoy	VR – madaniy va meros turizmi uchun VR asosidagi ta'limiy-tajriba modeli	2025-yil	+42 % – +75 %

AR texnologiyalari bo'yicha ham alohida statistik tahlil va qiyosiy jadval shakllantirish mumkin. Biroq bunda bir muhim jihatni hisobga olish lozim. Ko'plab AR loyihalarida natijalar odatda foydalanuvchilar qoniqishi, tajriba sifati va obyektlarda qolish davomiyligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Tashriflar sonining foizdagi o'sishini aniq ko'rsatadigan manbalar nisbatan kam uchraydi. Shu sababli AR bo'yicha jadval ham faqat foizlarda ifodalangan aniq natijalarga ega loyihalar asosida shakllantiriladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini turizm sohasiga dastlab joriy etgan davlatlar asosan rivojlangan mamlakatlar ekanligini ko'rsatadi. Mazkur mamlakatlarda ushbu texnologiyalar avvalo marketing va turistik tajribani namoyish etish vositasi sifatida qo'llanilgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya va Belgiyada 2015-yildan boshlab Thomas Cook kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan VR loyihalari natijasida ayrim turistik yo'nalishlar bo'yicha bronlash hajmi 190 foizga oshgan. Ushbu natija VR texnologiyalarining iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [10].

Kanada tajribasida VR texnologiyalaridan ekologik va uzoq hududlarni targ'ib qilishda foydalanilishi natijasida real tashriflar soni 5 foizga oshgan. Xitoyda esa VR asosidagi madaniy turizm modellarning joriy etilishi turistik tashriflarning 42–75 foiz oralig'ida o'sishiga xizmat qilgani empirik tadqiqotlar orqali asoslangan. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari VR va AR texnologiyalari turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda, xususan, sayyohlarni jalb qilish, bronlash jarayonlarini faollashtirish hamda turistik tajribani boyitishda yuqori iqtisodiy samara beruvchi innovatsion vosita ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, xususan, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining o'рни hamda ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili VR texnologiyalari asosan sayyohlarning safargacha bo'lgan qaror qabul qilish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatishini hamda turistik mahsulot va xizmatlarni oldindan virtual tajriba asosida baholash



imkonini yaratishini ko'rsatdi. AR texnologiyalari esa sayohat davomida axborot taqdim etish, yo'naltirish va madaniy meros obyektlarini interaktiv tarzda tushuntirish orqali sayyohlarning qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ushbu texnologiyalar turizm marketing samaradorligini, xizmatlar sifatini va sohaning raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini bermoqda [11].

Shuningdek, o'rganilgan xalqaro tajribalar VR va AR texnologiyalarini joriy etish natijasida turistik tashriflar soni, bronlash hajmi hamda iste'molchilar faolligi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu texnologiyalarni qo'llash bo'yicha istiqbolli imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning iqtisodiy samaradorligini empirik baholash, mahalliy turistik subyektlar uchun mos biznes-modellarni ishlab chiqish va texnologik infratuzilmani yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, VR va AR texnologiyalarini turizm sohasiga tizimli hamda bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, turistik manzillar, muzeylar va tarixiy obidalarda VR hamda AR texnologiyalarini joriy etish bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirish va ularning iqtisodiy samaradorligini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, turizm sohasi mutaxassislari uchun VR va AR texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslari hamda amaliy trening dasturlarini keng joriy etish zarur.

Uchinchidan, mahalliy IT-kompaniyalar va turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, milliy kontentga asoslangan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishni rag'batlantirish lozim.

To'rtinchidan, VR va AR texnologiyalarining turizm xizmatlariga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy va empirik tadqiqotlarni kengaytirish hamda ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim innovatsion vosita ekanligini ko'rsatdi. Mazkur texnologiyalar sayyohlarning qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirib, xizmatlar sifati, iste'molchilar qoniqishi va turistik obyektlarning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba VR va AR texnologiyalarining joriy etilishi turistik tashriflar soni, bronlash hajmi va foydalanuvchilar faolligining sezilarli o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar turistik mahsulotlarni samarali targ'ib qilish, madaniy meros obyektlarini zamonaviy usullarda namoyish etish hamda sohaning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini yaratadi. Shuning uchun O'zbekistonda VR va AR texnologiyalarini turizm sohasiga bosqichma-bosqich va tizimli ravishda joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, turistik manzillar, muzeylar va tarixiy obidalarda VR hamda AR texnologiyalariga asoslangan pilot loyihalarni amalga oshirish, turizm sohasi mutaxassislarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, mahalliy IT-kompaniyalar va turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda mazkur texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu chora-tadbirlar turizm xizmatlari sifatini yanada oshirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. P. Tussyadiah, D. Wang, T. H. Jung, and M. C. tom Dieck, "Virtual Reality, Presence, and Attitude Change: Empirical Evidence from Tourism," *Tourism Management*, vol. 66, pp. 140–154, Jun. 2018. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2017.12.003>
2. D. A. Guttentag, "Virtual Reality: Applications and Implications for Tourism," *Tourism Management*, vol. 31, no. 5, pp. 637–651, Oct. 2010. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.07.003>
3. M. C. tom Dieck and T. H. Jung, "Value of Augmented Reality at Cultural Heritage Sites: A Stakeholder Approach," *Journal of Destination Marketing & Management*, vol. 6, no. 2, pp. 110–117, Jun. 2017. <https://doi.org/10.1016/j.jdmm.2017.03.002>
4. D. Buhalis and R. Law, "Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years On and 10 Years After the Internet—The State of eTourism Research," *Tourism Management*, vol. 29, no. 4, pp. 609–623, Aug. 2008. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2008.01.005>
5. S. X. Komolov and S. D. Mutalibova, "Iqtisodiyotning Turizm Sohasida Raqamli Texnologiyalarni Qo'llash Samaradorligini Oshirish Yo'llari," *Zenodo*, Nov. 11, 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17818692>



6. S. To'ychiyev, "Turizmni Rivojlantirishda Eng Zamonaviy Texnologiyalarning Afzalliklari," PEDAGOGS International Research Journal, vol. 57, no. 2, pp. 141–145, May 2024. <https://pedagogs.uz/ped/article/download/1288/1248/2471>

7. UNIT9, "British Columbia: The Wild Within – Virtual Reality Tourism Experience," UNIT9 Case Study, 2014. [Online]. Available: <https://www.unit9.com/project/british-columbia>

8. YouVisit, "Virtual Reality Stats Marketers Can't Ignore," YouVisit Learning Center, 2015. [Online]. Available: <https://www.youvisit.com/learning-center/blog/virtual-reality-stats-marketers-cant-ignore/>

9. Visualise, "Thomas Cook: Virtual Holiday – Try Before You Fly," Visualise Case Study, 2015. [Online]. Available: <https://visualise.com/case-study/thomas-cook-virtual-holiday>

10. YouVisit, "Thomas Cook VR Campaign Results Across Europe," YouVisit Industry Insights, 2015. [Online]. Available: <https://www.youvisit.com/learning-center/blog/virtual-reality-stats-marketers-cant-ignore/>

11. Y. Zhang, L. Xu, and H. Chen, "Application of Virtual Reality Technology in Cultural Tourism and Its Impact on Tourist Behavior," Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education, vol. 36, 2025. [Online]. Available: <https://www.sciencedirect.com/org/science/article/pii/S1548109325000506>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>